

O'YIN (YUTUQLI AKSIYA) O'TKAZISH QOIDALARI

O'zbekiston Respublikasi hududida

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu qoidalar «Aura O'zbekiston» tomonidan o'tkaziladigan yutuqli o'yin shartlarini, sovrinlar nomini, o'yinda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini, o'yinni o'tkazish mexanizmini, natijalarni e'lon qilish tartibini hamda sovrinlarni olish muddatlari va shartlarini belgilaydi.

1.2. O'yin «Aura Roboclean Pro» va «Aura Cebilon Pro» brend mahsulotlari savdosini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.

1.3. Mazkur O'yin O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya hisoblanmaydi va alohida ishtirok to'lovi talab etilmaydi, faqat savdoni rag'batlantirish chorasi hisoblanadi.

2. O'YINNI O'TKAZISH MUDDATI

2.1. O'yin **2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 30-iyungacha** bo'lgan davrda o'tkaziladi.

2.2. Sovrinlar o'ynalishi **2026-yil iyul oyida** amalga oshiriladi.

3. O'YIN ISHTIROKCHILARI

3.1. O'yinda quyidagi shaxslar ishtirok etishi mumkin:

3.1.1. 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar. Agar ular 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 30-iyungacha Aura O'zbekiston kompaniyasidan yoki hodimlaridan Ushbu davr mobaynida har bir mijoz **Roboclean Pro** yoki **Sebilon Pro** texnikasini xarid qilib, **14 ta rekomendatsiya** berishi kerak. Agar ulardan **kamida bittasida sotuv amalga oshsa**, mijoz **1 ta bilet** qo'lga kiritadi.

3.1.2. 2026-yil belgilangan davrda Aura O'zbekiston kompaniyasi yoki hodimlaridan **ikki dona mahsulot** sotib olgan, 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ushbu xarid uchun **bitta kupon**, keyingi har bir xarid uchun qo'shimcha bitta kupondan beriladi.

3.1.3. Aura O'zbekiston kompaniyasi va uning xodimlari o'yinda ishtirok eta olmaydi.

3.3. O'yinda ishtirok etish Ishtirokchining ushbu qoidalar bilan to'liq tanishganini va roziligini anglatadi.

3.4. Ishtirokchi istalgan vaqtda o'yinda ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

3.5. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar Tashkilotchi tomonidan o'yinni o'tkazish va reklama maqsadlarida ishlatilishi mumkin, jumladan:

reklama intervyulari, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish;

foto va video tasvirlardan reklama materiallarida foydalanish (qo'shimcha to'lovsiz). Mazkur materiallarga bo'lgan barcha huquqlar Tashkilotchiga tegishli bo'ladi.

5. O'YINNI O'TKAZISH VA G'OLIBNI ANIQLASH TARTIBI

- 5.1. Sovrinlar barcha talablarga javob beruvchi Ishtirokchilar o'rtasida o'ynaladi.
- 5.2. G'oliblar ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirda kuponlarni tasodifiy tanlash orqali aniqlanadi.
- 5.3. Tashkilotchi uchinchi shaxslarni g'olibni aniqlash jarayoniga jalb etish huquqiga ega.
- 5.4. O'yinni o'tkazish joyi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.
- 5.5. Kuponi tasodifiy tanlangan Ishtirokchi g'olib deb e'tirof etiladi.

6. SOVRINNI OLISH TARTIBI VA MUDDATI

- 6.1. Tashkilotchi g'olib bilan O'yin o'tkazilganidan keyin **48 soat** ichida bog'lanadi.
- 6.2. Agar 48 soat ichida **3 marotaba** bog'lanish imkoni bo'lmasa, sovrin talab qilinmagan deb topiladi.
- 6.3. Sovrinni olish uchun g'olib quyidagilarni taqdim etishi shart:

shaxsni tasdiqlovchi hujjat;

Mahsulotni sotib olish shartnomasining asl nusxasi.

6.4. 1-o'rinni egallagan g'olib sovrinni olish uchun 3 ish kuni ichida Tashkilotchining O'zbekiston Respublikasi hududidagi bosh ofisiga o'z hisobidan kelishi shart.

6.5. Talablar bajarilmasa, sovrindan voz kechilgan deb hisoblanadi.

7. TASHKILOTCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 7.1. Tashkilotchi O'yin shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega.
- 7.2. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga rioya etishi shart.
- 7.3. Noto'g'ri ma'lumotlar yoki fors-major holatlar uchun Tashkilotchi javobgar emas.

8. YAKUNIY QOIDALAR

- 8.1. Bahsli holatlarda Qoidalarning yakuniy talqini Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.